

SIRDARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Tibbiyot muassasalari tarmog'iga shifoxona va ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo'nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.

Shifoxona muassasi – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soniga aholining ushbu muassasalarga qatnab yoki shifokorlarning uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalar kiritiladi. Ular qatoriga mustaqil poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) vrachlik punktlari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslahat xonalari va boshqalar kiradi.

Aholining kasallanishi yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuvi ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

Birlamchi kasallanish bemorga hayotida birinchi marotaba tashxisi aniqlanganda ro'yxatga olinadi.

Kasallanish darajasi - birinchi marotaba tashxisi aniqlangan bemorlar sonini doimiy aholining o'rtacha yillik soniga nisbati.

Bemorlar kontingenti – joriy hamda o'tgan yillarda tibbiyot muassasalariga murojaat etgan va kasallikga chalingan barcha shaxslar kiradi. Mazkur ko'rsatkich yil oxirida sog'liqni saqlash muassasalari hisobida turgan bemorlarni yil oxiridagi doimiy aholi soniga bo'linishi orqali hisoblanadi.

Tibbiyot xodimlarining soniga barcha ixtisoslik va turdagi tibbiyot muassasalarining (tibbiy yordam ko'rsatuvchi xususiy muassasalarni qo'shgan holda) shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlari kiritiladi.

Shifokorlarning umumiy soniga sog'liqni saqlash muassasalarida, sanatoriy-kurort muassasalarida, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarida, ilmiy tadqiqot institutlarida, sog'liqni saqlashning boshqaruv organi apparatida ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotga ega barcha mutaxassislar kiradi.

O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga sog'liqni saqlash, sanatoriy-kurort muassasalarida, bolalar uylarida va boshqa muassasalarda ishlayotgan o'rta maxsus tibbiy ma'lumotga ega barcha shaxslar kiritiladi.

SIRDARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


Sirdaryo viloyatida shifoxona muassalari soni¹⁾
tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlikda)



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyatida 42 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, jami shifoxonalar soni 2017-yilga nisbatan 27,2 % ga (9 taga) oshdi.


Sirdaryo viloyatida shifoxona muassalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi¹⁾

(2021 - yil oxiriga, birlik)




¹⁾ Tuman shaharlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan

Sirdaryo viloyati bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalardagi shifoxona muassasalari soni
(*tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik*)




Sirdaryo viloyati kichik korxonalar va mikrofirmalaridagi shifoxona muassasalarining tuman shahar bo'yicha taqsimlanishi
(*2021-yil oxiriga, birlik*)



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyatida 42 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 33,3 % (14 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar hisoblanadi. Jami xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar 2017- yilga nisbatan 50,0 % ga (7 taga) oshdi.



Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinikalar soni (tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)




2021-yil yakuniga ko'ra, Sirdaryo viloyatida 180 ta ambulatoriya poliklinikalari faoliyat ko'rsat-moqda, shundan 34,4 % (62 tasi) mulkchilik shakli bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar hisoblanadi. Ambulatoriya poliklinikalari soni bir yil mobaynida 14,6 % ga (23 taga) ko'paydi.

Jami ambulatoriya-poliklinikalar

ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinikalarning hududlar kesimida taqsimlanishi ¹⁾

(2021-yil oxiriga, birlikda)




¹⁾ Tuman shaharlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan

SIRDARYO VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Tuman shaharlar bo'yicha shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni ¹⁾

(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)




¹⁾ Tuman shaharlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, ming nafar)



Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni 2017- yilda 1,6 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1,9 ming nafarga yetib, o'sish sur'ati 18,7 % ni tashkil etdi.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlarning hududlar kesimida taqsimlanishi ¹⁾
(2021- yil oxiriga)




¹⁾ Tuman shaharlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan

Sirdaryo viloyati bo'yicha kichik korxonalar
va mikrofirmalarda faoliyat yuritayotgan vrachlar soni
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishida)




Sirdaryo viloyatida kichik korxonalar va mikrofirmalarda faoliyat yuritayotgan vrachlar soni 2021- yil oxirida 117 nafarni tashkil etib, 2017- yilga nisbatan 32 nafarga kamaygan.




Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning
gender bo'yicha taqsimlanishi ¹⁾

(2021-yil yanvar-dekabr oylari uchun, kishida)




¹⁾ Tuman shaharlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning
gender bo'yicha taqsimlanishi,
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)



Vrachlar malaka toifalari bo'yicha taqsimlanishi
(2021- yil yanvar- dekabr, % da)



■ Toifaga ega bo'lmaganlar

■ Oliy toifali


■ Birinchi toifali

■ Ikkinchi toifali


■ Uchinchi toifali



Sirdaryo viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni
(2021- yiling yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi)




Sirdaryo viloyati shifoxona
muassasalarining bemor o'rinlari soni
(2021-yil oxirida, ming birlik)



4,5

Shifoxonalarda
bemor uchun o'rinlar
soni, ming birlik



0,7

Kichik korxonalar va
mikrofirmalardagi
bemor uchun o'rinlar
soni, ming birlik



2,0

10 000 aholiga nisbatan
bemor o'rinlari soni



Press-relizni tayyorlash uchun ma`sul:
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi bo`limi



Sirdaryo viloyati
Statistika boshqarmasi



e-mail: info@sirstat.uz



www.sirstat.uz



facebook.com/sirdayo.viloyati



Manzil: 100170, Guliston sh.
Birlashgan ko`chasi, 62

Tel.: +9967 236-86-26